

TURKIY ADABIYOTLARDA GLOBALLASHUV METAFORALARI: YANGI DAVR POETIKASINING SHAKLLANISHI

Xayrullayeva Zahro Uyg'un qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi
tohirxayrullayev10@gmail.com

Annotatsiya. Globallashuv davrida nafaqat turkiy adabiyotda, balki, dunyo adabiyotlarida ham ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar o'z aksini topmoqda. Bu jarayon turkiy xalqlarning zamonaviy adabiyotiga ham ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Ya'ni texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, madaniy integratsiya kabi tushuncha, yangi obraz, metafora va uslublar orqali ifodalanmoqda. Buning natijasida yangi davr poetikasi zamonaviy ruhda shakllanmoqda.

Kalit so'zlar. Globalashuv, turkiy xalqlar, zamonaviy poetika, madaniy aloqalar, ruhiy uyg'unlashuv, ijodkorlar va manbalar.

TÜRK EDEBIYATINDA KÜRESELLEŞME METAFORLARI: YENİ ÇAĞIN ŞİİRİNİN OLUŞUMU

Khairullayeva Zahro Uyg'un kızı,
Semerkant Devlet Yabancı Diller Enstitüsü'nde Öğrenci

Özet. Küreselleşme çağında toplumsal, siyasal ve kültürel değişimler yalnızca Türk edebiyatına değil, dünya edebiyatına da yansıyor. Bu sürecin çağdaş Türk edebiyatını da etkilemesi kaçınılmazdır. Yani teknoloji, sosyal medya, kültürel entegrasyon gibi kavramlar yeni imgeler, metaforlar ve üsluplarla ifade ediliyor. Sonuç olarak yeni dönemin şiiri modern bir ruh içinde biçimleniyor.

Anahtar kelimeler: küreselleşme, Türk halkları, modern şiir, kültürel bağlar, manevi uyum, yaratıcılar ve kaynaklar.

МЕТАФОРЫ ГЛОБАЛИЗАЦИИ В ТУРЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: ФОРМИРОВАНИЕ ПОЭТИКИ НОВОЙ ЭПОХИ

Хайруллаевой Захро Уйгуновна,
Студент Самаркандского государственного института иностранных языков

Аннотация. В эпоху глобализации социальные, политические и культурные изменения находят отражение не только в турецкой литературе, но и в мировой литературе. Этот процесс не может не оказать влияния на современную литературу тюркских народов. То есть такие концепции, как технологии, социальные сети и культурная интеграция, выражаются через новые образы, метафоры и стили. В результате поэтика новой эпохи формируется в современном духе.

Ключевые слова. глобализация, тюркские народы, современная поэтика, культурные связи, духовная гармония, творцы и истоки.

METAPHORS OF GLOBALIZATION IN TURKIC LITERATURE: THE FORMATION OF A NEW ERA OF POETICS

Khayrullayeva Zahro Uyg'un qizi
Student of the Samarkand state institute of foreign languages

Annotation. *During the globalization period, social, political and cultural changes are reflected not only in Turkish literature, but also in world literature. This process cannot but affect the modern literature of the Turkic peoples. That is, concepts such as technology, social networks, cultural integration are expressed through new images, metaphors and styles. As a result, the poetics of the new era is being formed in a modern spirit.*

Keywords. *globalization, Turkic peoples, modern poetics, cultural ties, spiritual harmony, creators and sources.*

Manaviyat dunyosining nur sochuvchi chirog'i sanalgan turkiy adabiyot ko'p millatli xalqlarning beqiyos xazinasi hisoblanadi. O'zbek, qozoq, qirg'iz, ozarbayjon, turkman va boshqa xalqlar adabiyotida yaratilgan asarlarni ma'naviy boylik sirasiga kiritish mumkin. Globallashuv davri adabiyoti milliy doiradan chiqib, insoniyat taqdirini, hozirda jamiyatga xavf solayotgan nomaqbul ishlar va global muammolarni (ekologiya, madaniyatlararo to'qnashuv, migratsiya) yoritib berishga sabab bo'ldi. Yangi davr adabiyotining rivojlanishiga texnologiyalar, ijtimoiy tarmoq va ommaviy axborot vositalarining talay hissasi mavjud.

Zamonaviy she'riyat modernizmga asoslangan masalalarni targ'ib qilish bilan birgalikda turli millatlar adabiy an'alarini birlashtirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda qo'shimcha qilish lozimki modernlashgan poetikada sharq falsafasi bilan g'arbiy eksiztensializm uyg'unlashuvi mujassam. Bu holat esa madaniyatlararo dialogga debocha bo'ladi. Natijada she'riyat faqat turkiy xalqlar orasida emas Yevropa davlatlari adabiyoti bilan ham aloqada bo'ladi.

Badiiyatning o'tkir quroli bo'lmish so'z orqali jahon xalqlarini birlashuvga, o'zaro do'stonalikka chaqirish mumkinligi azaldan xalqimizga yod bo'lib ketgan. Globallashuv davrida shoirlar o'z milliyliklarini saqlab qolishga intilar ekan, ba'zan globalizm bosimi bilan ziddiyatga tushib qoladilar. Oqibatda poetik ifodada ichki kurashlar yuzaga keladi. Garchi she'riy asrlar zamonaviy oqimga hamrohlik qilsa-da, turkiy adabiyot mumtoz manbalardagidek jozibasini saqlab qoladi. Hozirgi davr poetikasida turli til va uslublar qo'llanishiga qaramay milliy til o'z qiymatini yo'qotmaydi. Aksincha, asarga noziklik va jilo beradi. Zotan tillararo hamkorlik adabiyotning keng tarqalishiga zamin yaratadi.

Zamonaviy she'riyatning ommalashuviga texnologiya davrining ta'siri xususida ko'plab qarashlar mavjud. Bugungi kunda she'rlar faqat kitoblarda emas, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, video platformalarida katta tezlikda tarqalmoqda. Bu ommalashuv poetik ifodaning yangi shakllarini (vizual she'riyat va boshqa) yaratmoqda.

Zamonaviy she'riyat va poetikaning antik davrini taqqoslab ko'rilganda yangicha xulosalar paydo bo'ladi. Forobiyning "She'r san'ati..." kitobida poetika mufassal bayon etiladi. Ushbu asarda she'rning yaratilish tabiati ijodkor shaxsi va mahorat muammolari so'z qadri xususida fikr yuritiladi. XI asrda yashab ijod qilgan adbiyotshunos olim Abdulqodir Jurjoni qalamiga mansub "Asror ul-balog'a fi-ilmi bayon" (Bayon ilmida balog'at sirlari) asarida so'z san'atidagi shakl va mazmun masalasiga alohida urg'u berilsa, XIII asrda yashagan qomusiy olim Qays Roziyning "Kitob ul-mo'jam fi maoyiri ash'or il-ajam" (Ajam she'riyati me'yorlari qomusi) kitobida nazariy masalalar-aruz tizimi, poetik san'atlar, she'riy janrlar tahlil qilinadi. Kaykovusning "Qobusnoma"sida esa, she'r jamiyatning turli qatlamlari estetik talablaridan kelib yaratilishi, badiiy asar, albatta, ta'sirchan bo'lishi lozimligi haqida mulohazalar o'rin olgan. Lirik asarlar sirasiga tazkiralar, devon va bayozlar kiritilgan [1, 22 b]. Obrazlar sistemasi voqeliklar bilan o'zaro uyg'unlashib ketgan. Cho'lponning "Adabiyot nadur" maqolasida o'rta tashlangan "Adabiyot yashasa- millat yashar" degan g'oyasi milliy uyg'unish va turkiy adabiyotning tomir otishiga turtki bo'ldi.

"O'rxon-Enasoy bitiklari", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari - bularning barchasi turkiy xalqlarning ilk adabiy meroslari sifatida e'tirof etiladi. Globallashuv jarayonida bu nodir asarlar nafaqat ilmiy doiralarda, balki jahon ommasi orasida ham keng o'rganilmoqda va turli tillarga tarjima qilinmoqda. Bu esa turkiy adabiyotning xalqaro maydondagi nufuzini oshirmoqda.

Turkologik tadqiqotlar natijasi Ozarbayjon, O'zbekiston, Qirg'iziston, Turkiya va Turkmaniston adabiyotshunoslar tomonidan qiziqish paydo qilib, ushbu loyiha alohida nazoratga olindi va uni yanada rivojlantirish borasida ilmiy, ma'naviy-marifiy tadbirlar tashkil etilmoqda. Turkiylar dunyoning qadimiy va qudratli xalqlaridan biridir. XX asr turk adabiyotining namoyondasi Aziz Nesin aytganidek: "Har bir millatning buyukligi aholisining ko'pligi va maydonining kattaligiga qarab belgilanmaydi. Har bir xalqning buyukligi uning tarixi va madaniyatining qadimiyligi va boyligi bilan aniqlanadi". Turkiylar 3500 yillik siyosiy tuzimaga ega bo'lgan. Qudratli xalq adabiyotining qariyb 2700 yillik tarixga egaligi millat boyligini moziydan ardoqlanganligiga dalil bo'la oladi [2, 15]. Garchand bu xalqlar uzoq yillar davomida tazyiq va inqilobga uchrashiga qaramay ma'naviy yodgorliklarni avlodlarga yetkazib beroldi. Hazrati Muhammad Payg'ambarning "Turklarning tillarini o'rganing..." kabi davatlari turkiy xalqlarning ilmga qay darajada yaqin va adolatli ekanliklaridan darak beradi. Mumtoz turkiy adabiyot durdonalari asnosida vujudga kelgan yangi davr asarlarida ko'tarinkilik, Vatanga sadoqat, yorga muhabbat va xalqparlik tarannum etiladi. Globallashuv sharoitida zamonaviy turkiy yozuvchilar o'z asarlarida nafaqat milliy muammolarni, balki butun insoniyatga xos bo'lgan dolzarb mavzularni ham ko'tarishmoqda.

Yangi davr o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan ko'pdan-ko'p shoir va shoiralarni sanab o'tish mumkin. Jumladan, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Rauf Parfi, Zulfiya, Hamid Olimjon va yana ko'plab ijod ahlini sanab o'tsa bo'ladi. XXI asr o'zbek poetikasida Xurshid Davron, Nodir Jonuzoq, Halima Ahmedova, Zebo Mirzo, Mahmud Toir ijodiyoti tahsinga sazavor.

Turk adabiyoti namoyondalaridan Orhan Pamukning "Qor", "Beyaz Kale" (Oq qal'a) va "Benim adim Kirmizi" (Mening ismim Qirmizi) asarlari uchun turk adabiyotining targ'ibotchisi deyish mumkin. Bundan tashqari romannavis Elif Shafakni ham nomma-nom yodlab o'tish joiz.

Qozoq adabiyotida O'ljas Sulaymon, qirg'iz adabiyotida Chingiz Aytmatov hamda Ozarbayjon adabiyotida Elchin Afandiyev asarlari zamonaviy ruhda bitilgan.

Shunday qilib, dunyo mislsiz tezlikda rivojlanib borayotgan bugungi kunda madaniyatlar almashinuvinin kuchayishi, ilm-fanga bo'lgan ehtiyojning ortishi bevosita xalqlar adabiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Turkiy yozuvchilar globallashuvning imkoniyatlardan foydalangan, o'z milliy ruhini saqlagan holda zamonaviy uslubda ijod qilishmoqda. Bu ma'naviyatning yuksak cho'qqiga chiqishiga birdan-bir ishonch demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. H.Abdullayev. O'zbek adabiyoti tarixi. - Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2020, 22 b.
2. Elman Quliyev. Turkiy xalqlar adabiyoti. Toshkent: "Renessans press", 2022, 15-16 b.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr, 2018.
4. Kamol o'g'li, H. H. (2024, October). The Role of Auxiliary Words in the Formation of Phraseological Units. In International Conference on Adaptive Learning Technologies (Vol. 10, pp. 55-56).